

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIIY
RIVOJLANISHINING ASOSIIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

5-SHO‘BA.

QURILISH VA ENERGETIKA SOHASIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR TAHLILI: NATIJA VA ISTIQBOLLAR

SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQUARISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH VA ZAMONAVIY BOSHQARUV TEKNOLOGIYALARINI QO‘LLASH

Abdulhamidov Abdullajon Ortiq o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali 3-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: Usmonova Vasila Botirovna

abdulabdullajon3232.32@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini qo‘llashning dolzarbligi, afzalliklari hamda amaliy yo‘nalishlari yoritiladi. Raqamli texnologiyalar, xususan, IoT, sun‘iy intellekt, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va big data yechimlari sanoat jarayonlarining samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini barqaror ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi ko‘rsatiladi. Shuningdek, raqamlashtirish ishlab chiqarishni real vaqt rejimida monitoring qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini optimallashtirish va inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni sezilarli kamaytirish imkonini berishi tahlil qilinadi. Maqolada raqamli transformatsiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishi uchun korxonalarda zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish, malakali kadrlarni tayyorlash hamda innovatsion infratuzilmani shakllantirish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Sanoat, texnologiya, innovatsiya, investitsiya, sarmoya, sanoat zonasi, qaror, import, strategiya.

Bugungi jadallik bilan rivojlanib borayotgan ijtimoiy va iqtisodiy hayotimizda yangi turdagi texnika va texnologiyalarning o‘rni juda katta bo‘lib bormoqda. Shu bilan bir qatorda ulardan iqtisodiy faoliyatni olib borishda ham keng miqyosda foydalanilmoqda, xususan sanoat korxonalari hozirgi kunda eng ko‘p texnika va texnologiyalar qo‘llanilayotgan iqtisodiy tarmoq hisoblanadi. Ushbu ketirilgan maqolada ham yuqoridagi fikrlar yoritib o‘tilgan va ularning yurtimizdagi sanoat zonalarini va korxonalariga tadbiq qilinishi to‘g‘risida so‘z boradi. Bu maqsadda yana shuni alohida ta‘kidlab o‘tish zarurki muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirzeyoyev respublikada raqamli biznes va avtomatlashtirilgan korxonalar faoliyatini rivojlantirishga katta e‘tibor bermoqda va shu maqsadda qator davlat strategiyalari davlat rahbarimiz tomonidan ishlab chiqilmoqda. Real sektorda esa korxonalar faoliyatini takomillashtirish va sanoat zonalarini kengaytirishga va yangi sanoat zonalarini tashkil qilishga ham alohida

e’tibor berilmoqda, bu maqsadda birgina xorijiy investitsiyalarni ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak qo‘yidagi raqamlarni ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston sanoatining raqamli transformatsiyasi davlat darajasida strategik yo‘nalishga aylangan. Xususan, Prezidentning “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi bo‘yicha 5-oktabr 2020-yilda imzolangan farmoni mamlakatda raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish, elektron xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va sanoat tarmoqlarida zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli davlat dasturini boshlab berdi. Ushbu hujjat orqali sanoat korxonalarida raqamli monitoring tizimlari, aqlli ishlab chiqarish (Smart Factory) elementlari, sun‘iy intellekt asosidagi tahlil platformalari va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish davlat siyosati darajasida belgilab qo‘yildi. Bu esa O‘zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, samaradorlikni kuchaytirish va yangi texnologik bosqichga chiqishga xizmat qilmoqda⁸⁶.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 19-dekabr kuni investitsiya bo‘yicha 2024-yildagi natijalar sarhisobi va kelgusi yilgi vazifalar muhokamasi yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

2017-yildan buyon mamlakatimiz iqtisodiyotiga barcha manbalar hisobidan 188 milliard dollar investitsiya kiritilgan. Shundan 87 milliard dollari chetdan jalb qilingan. Natijada investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 30 foizdan oshib, barqaror iqtisodiy o‘sishga zamin bo‘layapti.

Bu yil iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1,3 baravar ko‘payib, 36 milliard dollardan oshdi. Bularning hisobiga yil boshidan buyon qo‘shimcha 70 trillion so‘mlik qiymat beradigan 560 ta yirik va o‘rta loyihalar ishga tushirildi. Kelasi yildan eksportni yana 1 milliard dollarga oshirish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Soha va hududlarda ochilayotgan imkoniyatlar bilan bu natijalarni yanada oshirsa bo‘ladi.

Joriy yil so‘ngiga qadar esa 43 milliard dollarlik investitsiyalarni o‘zlashtirish ko‘zda tutilmoqda. Bu orqali 300 dan ortiq yirik loyiha bajarilishi, import o‘rnini bosuvchi 662 ta yangi mahsulot ishlab chiqarilishi kutilmoqda⁸⁷.

Shu bilan birga ishlab chiqarish va xizmatlar sohalariga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy boshqaruv texnologiyalari korxona faoliyatini real vaqt rejimida rejalashtirish, monitoring qilish va optimallashtirishga xizmat qiluvchi raqamli, analitik va avtomatlashtirilgan tizimlar majmuasidir. Bugungi kunda global sanoat korxonalarida qo‘llanilayotgan boshqaruv usullari an‘anaviy yondashuvlardan farqli ravishda ma‘lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish, sun‘iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish imkonini yaratadi.

Eng muhim texnologiyalardan biri — ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari bo‘lib, ular korxonaning moliya, ishlab chiqarish, logistika, kadrlar va marketing kabi bo‘limlarini yagona axborot maydoniga birlashtiradi. MES (Manufacturing Execution System) tizimlari esa ishlab chiqarish jarayonini real vaqt

⁸⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son.

⁸⁷ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, 19-dekabr 2024-yil hisoboti.

rejimida boshqaradi, xatolarni kamaytiradi va resurslardan foydalanishni optimallashtiradi. CRM (Customer Relationship Management) texnologiyalari mijozlar bilan ishlash jarayonlarini avtomatlashtirib, sotuv samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, Big Data, IoT, sun‘iy intellekt, bulutli hisoblash, business intelligence (BI) va robotlashtirilgan jarayonlarni boshqarish (RPA) kabi innovatsion yechimlar bugungi korxonalar uchun strategik ustunlik yaratmoqda. Bu texnologiyalar orqali korxonalar xarajatlarni qisqartiradi, tezkor tahlilga ega bo‘ladi, jarayonlar aniq va shaffoflashadi hamda boshqaruvning samaradorligi oshadi⁸⁸.

Zamonaviy sanoat zonalariga yangi turdagi texnologiyalarni jalb qilish maqsadida respublikamizga xorijiy investitsiyalarning katta oqimi jalb qilinmoqda. Shu maqsadda davlatimiz rahbarining 2024-yil 20-martdagi tegishli qaroriga asosan tashkil etilgan “Yangi avlod” sanoat zonasida hududdagi istiqbolli loyihalardan biri “East Can Solutions” kompaniyasi tomonidan amalga oshirilmoqda. Bu yerda alyumin qadoq ishlab chiqarish va salqin ichimliklar quyish majmuasi tashkil etildi.

Prezidentimiz loyihaning istiqboli, u yerda tayyorlanayotgan mahsulotlar ko‘rgazmasi bilan tanishdi. Shu yerda loyihaga rasman start berildi.

Korxona 21 gektar hududda joylashgan. Qiymati 90 million dollar bo‘lgan ushbu loyiha asosan xorijiy investitsiyalar hisobiga moliyalashtirilmoqda.

Markaziy Osiyodagi sanoqli korxonalar sirasiga kiruvchi bu majmua AQSH, Buyuk Britaniya, Italiya va Germaniyada ishlab chiqarilgan zamonaviy uskunalar bilan jihozlandi. Ishlab chiqarish jarayoni esa to‘liq raqamlashtirilgan.

Korxonada ishlab chiqarish quvvati bosqichma-bosqich oshirib boriladi. Ilk bosqichda yiliga 600 million dona, keyingi bosqichlarda esa 1,1 milliard va 2,2 milliard dona alyumin qadoq mahsulotlari ishlab chiqariladi. Bu ko‘rsatkichlar nafaqat ichki bozor ehtiyojini qondirish, balki mintaqaviy miqyosda raqobatbardosh mahsulot eksport qilish imkonini ham yaratadi.

Loyihaning ishga tushishi natijasida 60 million dollarlik import o‘rni qoplanib, 20 million dollarlik eksport imkoniyati yaratiladi.

Mahalliyashtirish darajasi 90 foizga yetkaziladi. E‘tiborlisi, korxonadagi barcha loyihalar to‘liq ishga tushishi bilan 500 ta yangi ish o‘rni yaratiladi. Byudjet uchun esa salmoqli soliq tushumlari ta‘minlanadi⁸⁹.

Prezidentga shu yerda “Yangi avlod” maxsus sanoat zonasida amalga oshirilayotgan ishlarning borishi haqida axborot berildi. Mas’ullar sanoat zonasining umumiy rivojlanish strategiyasi, mahalliyashtirish, raqamlashtirish va energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qilingan ishlar xaqida ma‘lumot berdi.

Bu yerda oziq-ovqat, elektrotexnika, mashinasozlik, kimyo va qurilish materiallari yo‘nalishlarida jami 1 milliard 200 million dollarlik 58 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbariga ularning 28 tasi taqdimot qilindi. Yaqin istiqbolda amalga oshadigan ushbu tashabbuslar amalga oshishi natijasida 7 ming 600 ta yangi ish o‘rni yaratiladi.

⁸⁸ Maxmudova Guljaxon Nematdjonovna. Raqamli iqtisodiyot. Darslik. –T.: “Universitet”, 2022.

⁸⁹ Prezident.uz rasmiy sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/8573>

Ular nafaqat iqtisodiy samara, balki yangi ish o‘rinlari, eksport salohiyati va mahalliy ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish orqali ijtimoiy barqarorlikka ham xizmat qilishi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari milliy brendlar ostida yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, O‘zbekistonni mintaqaviy “elektrotexnika xabi”ga aylantirish vazifasini qo‘ygan. Shu munosabat bilan joriy yilning 22-iyul sanasida prezidentimiz Jizzax viloyati Zomin tumanida tashkil qilingan yangi maishiy texnikalar ishlab chiqarishga moslashga yangi zavod faoliyati bilan tanishib chiqadilar. “Navoiy” maxsus sanoat parkining filiali sifatida tashkil etilgan majmua 80 gektarda joylashgan. Loyihaning umumiy qiymati 150 million dollar. Bu yerda kir yuvish mashinasi, sovutkich, televizor, elektr suv isitkich kabi yiliga 1 million dona maishiy texnika hamda butlovchi qismlar ishlab chiqariladi. 100 turdagi mahsulotlar natijasida mahalliyashtirish darajasi 70 foizga yetadi.

Muhimi, yillik ishlab chiqarish hajmi 320 million dollar bo‘ladi. Shundan 140 million dollarlik mahsulot eksportga yo‘naltiriladi. 7 mingdan ziyod aholi ish bilan ta‘minlanadi.

Sanoat parkida tayyorlangan mahsulotlar Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston singari 15 dan ortiq mamlakatga eksport qilinadi⁹⁰.

O‘zbekiston sanoatining raqamli transformatsiyasi davlat darajasida strategik yo‘nalishga aylangan. Xususan, Prezidentning “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi bo‘yicha 5-oktabr 2020-yilda imzolangan farmoni mamlakatda raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish, elektron xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va sanoat tarmoqlarida zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli davlat dasturini boshlab berdi. Ushbu hujjat orqali sanoat korxonalarida raqamli monitoring tizimlari, aqlli ishlab chiqarish (Smart Factory) elementlari, sun‘iy intellekt asosidagi tahlil platformalari va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish davlat siyosati darajasida belgilab qo‘yildi. Bu esa O‘zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, samaradorlikni kuchaytirish va yangi texnologik bosqichga chiqishga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, 19-dekabr 2024-yil hisoboti.
3. Maxmudova Guljaxon Nematdjonovna. Raqamli iqtisodiyot. Darslik. — T.: “Universitet”, 2022.
4. Prezident.uz rasmiy sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/8573>
5. Prezident.uz rasmiy sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/8323>
6. Innovatsion rivojlanish agentligi. “2025–2027-yillarda ilm-fan va innovatsiya sohasini raqamlashtirish, jarayonlarni optimallashtirish uchun yangi 14 ta axborot tizimi ishlab chiqiladi.” Gov.uz. 23 may 2025.

⁹⁰ Prezident.uz rasmiy sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/8323>

7. UzDaily. “2025-2027 yillarda ilm-fan va innovatsiya sohasini raqamlashtirish, jarayonlarni optimallashtirish uchun yangi 14 ta axborot tizimi ishlab chiqiladi.” 23 may 2025.

8. Innovatsion rivojlanish agentligi. “Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan ilmiy va innovatsion faoliyatni raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar.” Innofund.uz. 27 dekabr 2024.

9. Teshayeva, G. M. “O‘ZBEKISTON – 2030 strategiyasi: raqamli jamiyatga o‘tishda axborot texnologiyalarining tutgan o‘rni.” Tadqiqotlar.uz, tahrirlangan maqola.

O‘ZBEKISTONNING INVESTITSIYA MUHITI VA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH

Qo‘ldoshev Sanjar O‘tkir o‘g‘li
Sardor Sanjar Leader MCHJ buxgalteri.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, O‘zbekistonda yaratilgan investitsion muhit, qonunchilik tamonidan belgilangan tartib qoidalar, so‘ngi yillarda amalga oshirilayotgan investitsiyaga bog‘liq statistik ma‘lumotlar tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilishda o‘ziga xos xususiyatlari hamda ularning iqtisodiyotimizdagi roli keng o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, investitsion muhit, investor, iqtisodiy rivojlanish, xorijiy investitsiya.

Mamlakatimizda keyingi yillarda qulay investitsiya muhitini yaratish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoyalarni faol jalb qilish, xorijiy hamkor davlatlar ishtirokidagi qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, shuningdek sohada faoliyat yuritayotgan mahalliy va xorijiy investorlarning huquqlarini har tomonlama kafolatlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu o‘rinda e‘tirof etish kerakki, O‘zbekistonda qulay investitsiya muhitini yaratish va uning jozibadorligini oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Natijada xorijiy investitsiyalarni jalb etishning o‘ziga xos yo‘nalishi, ularni jalb etishni rag‘batlantirish tizimini yanada takomillashtirish orqali investitsiya faoliyatining huquqiy tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2025-yil 16-yanvar kuni investitsiyalarni keng jalb etish va eksportni oshirish bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda investitsiya va eksport bo‘yicha kelgusidagi asosiy vazifalarni belgilab berdilar. Investitsiyaning samaradorligini oshirish hudud va tarmoq rahbarlarining asosiy vazifasi bo‘lishi kerakligini alohida ko‘rsatganlaridek “Bu iqtisodiyotimiz o‘rishiga katta turtki beradi. Kafolatli xarid hisobiga, juda ko‘p yangi ish o‘rinlari yaratiladi, valyuta tejaladi va yondosh sohalar rivojlanadi. Buni hokimlar yaxshi tushunib, har bir loyihaning “ichiga kirib”, ishni unumli tashkil qilish kerak”.